

T A' LIM ZIYOSI

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

UNIVERSITET GAZETASI 5-son

Gazeta ichida gazeta

"KELAJAK O'QITUVCHISI" KONSEPSIYASI: STRATEGIK LOYIHALAR TAQDIMOTI

Universitetning drayver fakultetlaridan – Pedagogika fakultetida "Kelajak o'qituvchisi" konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan istiqbolli strategik loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli ilmiy-amaliy taqdimot zamonaviy pedagogika sohasida chuqur o'zgarishlar davrida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi muhim qadam sifatida e'tirof etildi.

Taqdimot avvalida universitet rahbari, professor G'afurjon Muhamedov oliygohning strategik maqsadlari haqida fikr bildirdi. Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "Kelajak o'qituvchisi" konsepsiyasiga berilayotgan e'tibor, ta'lim tizimida olib borilayotgan chuqur islohotlar, raqamli transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirishdagi muhim vazifalar haqida atroflicha to'xtaldi. Rektor, shuningdek, pedagogik ta'limni zamonaviy ilmiy yondashuvlar, innovatsion metodlar va xalqaro standartlar asosida rivojlantirish zaruratiga urg'u berdi.

Taqdimot davomida "Pedagogika", "Psixologiya", "Maxsus pedagogika" va "Umumiy pedagogika" kafedralari o'zlarining istiqbolli strategik loyihalarini namoyish etishdi. Ushbu loyihalarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli platformalardan foydalanish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, shuningdek, ta'limda inklyuziv yondashuvni kuchaytirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.


Kafedra rahbarlari tomonidan taqdim etilgan har bir loyiha dolzarbligi, innovatsion yondashuvi, amaliy samaradorligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turdi. Loyihalar doirasida xorijiy



hamkor universitetlar bilan o'zaro tajriba almashish, xalqaro grantlarda ishtirok etish, akademik mobillikni rivojlantirish kabi yo'nalishlar ham belgilab berildi.

Tadbirda universitet professor-o'qituvchilari, doktorantlar ham faol ishtirok etdi. Qizg'in munozaralar, savol-javoblar asosida strategik loyihalar yuzasidan taklif va mulohazalar bildirildi.

Universitetning taraqqiyot strategiyasi dasturlari doirasida keng qamrovli islohotlarni o'z ichiga olgan kafedra taqdimotlari, har haftaning juma kuni o'tkazilishi belgilab olindi.



MENTORLIKDAN – DISSERTATSIYAGACHA!

Har yili Chirchiq davlat pedagogika universitetida magistratura talabalarining dissertatsiya himoyasi unutilmas voqealarga boy bo'ladi. Ana shunday voqealar Ozoda Abdullayeva nomi bilan bog'liq.

2023-yil. universitetda ilk bor talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirish maqsadida "Mentorlik sari" deb nomlangan seminar-trening tashkil etilgandi. 300 ga yaqin talabadan 37 nafari finalga yetib, rektorimizning maxsus sertifikatini qo'lga kiritdi. Ular orasida Ozoda ham bor edi. U paytda Ozodaga sabr, izlanish va mehnat yangi yo'llarni ochdi. "Mentorlik sari"dan boshlangan tajriba – unda akademik mahorat, nutq madaniyati va tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirdi.

Bugun esa u shunchaki talabagina emas – balki o'z mavzusida ilmiy fikr bildirgan, professor va fan nomzodlari oldida mardona himoya qilgan, ilmiy izlanishlar sari dadil qadam tashlagan magistr!

Ozoda ikki yil davomida tinmay izlandi, ilm yo'lida dadil odimladi. Uning ustozlari bergan bilim va ko'nikmalar, mentorlikdagi faol ishtiroki unga kuch-quvvat baxsh etdi. Uning muvaffaqiyati – yakka holdagi yutuq emas. Bu "Mentorlik sari"ning, uning ustozlari va o'z ustida ishlagan insonlarning tinimsiz zahmati samarasidir.

Shu sabab, "Mentorlik sari" kabi tashabbuslar ko'psin! Ular – talabalarning shaxsiy rivoji, ilmiy o'sishi va yurtimiz kelajagi uchun mustahkam poydevordir.

Ozodaga keyingi ilmiy faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar, seminar-trening tashkilotchilariga esa – qalbdan chiqqan rahmatlarimizni aytamiz!

Go'zal OTAMUXAMEDOVA,
Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i



Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ularning ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, magistratura bosqichi o'zining ilmiy salohiyati va yangilik yaratish imkoniyatlari bilan ta'lim tizimining markaziy nuqtalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan Chirchiq davlat pedagogika universitetida 18 ta mutaxassislikda tahsil olayotgan 84 nafar magistrantning dissertatsiya himoyalari boshlanishi katta voqea bo'lmoqda.



Magistrantlarimiz tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy ishlar nafaqat o'z yo'nalishlarining fundamental masalalarini

hal etishga qaratilgan, balki jamiyatimiz, mamlakatimiz va xalqimiz manfaatlarini ilgari suradigan dolzarb muammolarga

ham yechim topishga xizmat qiladi. Har bir dissertatsiya – bu muammoni

chuqur o'rganish, yangi metod va yondashuvlarni yaratish va albatta, ilmiy yangilik kiritish harakatidir. Ilm-fanning har bir qadamida shunday ijodiy yondashuv bo'lishi zarur.

Himoya jarayonlari universitetning turli fakultet va kafedralarida an'anaviy ilmiy shaffoflik va qat'iy baholash tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Professor-o'qituvchilar, ilmiy rahbarlar va ekspertlar bu jarayonlarda faollik ko'rsatib, har bir magistrantning ishini sinchkovlik bilan tahlil qilmoqda.

Bu esa oliy ta'lim muassasasining ilmiy salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lim va pedagog kadrlar tayyorlash borasida ko'plab muhim qarorlar va farmonlarni qabul qilib, yoshlarni barkamol bo'lib yetishishlariga katta e'tibor qaratmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra: "Yangi O'zbekistonning kuchi – uning bilimli, malakali, ijodiy va shijoatli yoshlaridir. Har bir o'qituvchi – bu faqat bilim beruvchi emas, balki yosh avlod qalbini

yorituvchi, ularning kelajagini bunyod qiluvchi muhim insondir".

Har tomonlama yetuk o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni, innovatsion metodlarni chuqur o'rganib, har bir o'quvchiga zamonaviy va sifatli ta'lim berishi shart, deb hisoblaymiz. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, ularni XXI asr talablariga moslashtirish – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Ixtiyor ASHIRBOYEV,
Magistratura bosqichi bitiruvchisi

PEDAGOGIKA SOHASIDA YANGI QADAM

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zining ilmiy-pedagogik yo'nalishlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. "Kelajak o'qituvchisi" loyihasi aynan shu maqsadda ishlab chiqilgani va uning amalga oshirilishi pedagogika sohasida innovatsion qadam hisoblanishi hech shubhasizdir.

Bu loyiha nafaqat sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, balki ularda tanqidiy fikrlash, kreativlik va samarali kommunikatsiya kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. "5K" ko'nikmalari – bu XXI asr talablari va aynan mana shu sohada malakali kadrlar

tayyorlash eng dolzarb vazifa. Loyihada professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar faol ishtirok etmoqda. Ular ilmiy yo'l xaritalarini ishlab chiqib, yangi o'quv dasturlarini joriy etmoqda. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni

amaliyotga kiritishga xizmat qiladi. Universitetdagi professor-o'qituvchilar jamoasi o'zining ilmiy salohiyati, pedagogik mahorati bilan faxrlanadi. Ular nafaqat magistrantlarning ilmiy izlanishlarini boshqaradi, balki o'zlari ham yangi ilmiy loyihalar va tadqiqotlar

ustida ishlaydi. Bu jarayonda yoshlar – magistrantlar va doktorantlar faol ishtirok etadi, ular birgalikda innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishadi.

Yosh mutaxassislarining faol jalb qilinishi universitetning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Maxsus ishchi guruhlar tashkil etilib, ular doimiy ravishda yangi g'oyalar, metodologiyalar ustida ishlashmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistratura bosqichidagi himoya jarayonlari, "Kelajak o'qituvchisi" loyihasi va malakali kadrlarni tayyorlash borasidagi izchil ishlar – bularning barchasi ta'lim tizimimizning obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi zamon talablariga mos pedagoglarni tayyorlash – davlat siyosatining ustuvor vazifasi va universitet munosib darajada buning

uddasidan chiqmoqda.

Magistrantlar va professor-o'qituvchilarga ilmiy izlanishlarida omad, yangi yutuqlar, zamonaviy pedagogika olamida yorqin iz qoldirishlarini tilaymiz. O'zbekiston ta'lim tizimi zamonaviy, innovatsion, xalqaro standartlarga javob beruvchi tizimga aylanishi yo'lida Chirchiq davlat pedagogika universitetining o'rni katta va muhimdir.

Diyyorbek TURG'UNPO'LATOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Yoshlar akademiyasi lideri

“DOLZARB 90 KUN”: MA'NAVIYAT VA IJODIY SALOHİYATGA YETAKLOVCHI UCHRASHUVLAR


Yurtimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirish, ilm-fanga, xususan, aniq fanlarga

Xususan, ushbu loyiha doirasida Kimyo kafedrasida xodimlari bilan Chirchiq shahridagi

4 va 6-sonli umumta'lim maktablarida mazmunli uchrashuvlar tashkil etildi.

Uchrashuvlar davomida kafedra vakillari o'zlarining boy tajribalari, ilmiy bilim va metodik ko'nikmalarini o'quvchilar bilan o'rtoqlashdilar. Nafaqat kimyo faniga oid nazariy va amaliy bilimlar, balki fanni o'qitishda innovatsion yondashuvlar, fanlararo integratsiya va kasb tanlashda to'g'ri yo'nalish berish kabi masalalarda ham o'quvchilarga foydali maslahatlar berildi.

bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kimyo kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan samarali tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda.



MAMLAKATIMIZNING

“ENG FAOL IJTIMOY XODIM”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan o'tkazilgan “Eng faol ijtimoiy xodim” tanlovining respublika bosqichi yakunlandi.

Tanlovda Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakultetining sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi Umida Xamidullayeva faxrli uchinchi o'rinni egalladi.



“TYUTOR”LAR KIM? MAQSADLAR MUSHTARAKMI?

Bugungi kunda universitetda talabalarining mustaqil ta'lim olishini rivojlantirishga ko'maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq, endi ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifasi ham avvalgilardan tubdan farq qiladi.

“Tyutor” so'zi lotincha “Tutorem” – ustoz, murabbiy. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi, ya'ni ma'ruza tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz vazifasini bajaradi.

Bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan. Shunga qaramay, yangi termin sifatida nafaqat tilimizda, balki Chirchiq davlat pedagogika universitetida lavozim sifatida qo'llanmoqda.

Universitetimizda 52 nafar tyutor ish faoliyatini olib boradi.

Tyutor va o'qituvchi o'rtasidagi farq nimada?

Ko'pchilik tyutor va o'qituvchini bir xil deb o'ylaydi, lekin ular vazifasi, yondashuvi va munosabati jihatidan sezilarli

farqlarga ega.

Qisqacha eslab qolish uchun: Tyutor – bu yo'l ko'rsatuvchi, yordamchi, murabbiy.

O'qituvchi – bu bilim beruvchi, dars o'tuvchi shaxs.

Ular bir-birini qanday to'ldiradi?

O'qituvchi bilim beradi → tyutor bu bilimni qanday o'zlashtirish kerakligini tushuntiradi.

O'qituvchi baho qo'yadi → tyutor talabaning kamchiliklarini tahlil qiladi va yaxshilanish yo'lini ko'rsatadi.

O'qituvchi fan bilan band → tyutor talabaning shaxsiy, akademik va psixologik holatini tushunadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tizimli rivojlanayapti. Strategik maqsadlari aniq. Kelajak pedagogini yaratish ustida izlanishda.

Universitet tyutorlari CHDPU strategiyasini amalga oshirishda drayver shaxsga aylanishi lozim. Tyutor universitet ma'muriyati va talabalar o'rtasida ko'prikdir.

Ilhom G'ANIYEV,
Matematika va informatika
fakulteti dekan o'rinbosari

AKADEMIK LITSEYDA DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyida ta'lim muassasasi bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanali tadbirda Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ijrochi direktori Doniyor Zakirov so'zga chiqib, diplom topshirish marosimini ochiq, deb e'lon qildi va bitiruvchi o'quvchilarni kelgusi faoliyatida omad va zafarlar tiladi.

Yakunlangan o'quv yilida akademik litseyini 3 yo'nalishdagi 6 ta guruhda jami 131 nafar o'quvchi bitirdi, ulardan 8 nafari o'qishni imtiyozli diplom bilan tamomladi.

Shulardan 2 nafar o'quvchiga oltin medal va 1 nafar o'quvchiga kumush medal topshirildi.



YUTUQLAR XALQARO DARAJADA E'TIROF ETILDI



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muassisligida nashr etilayotgan “Ovozi tojik” gazetasi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada Chirchiq davlat pedagogika universiteti – tojik tili ta'limi namunali yo'lga qo'yilgan oliy ta'lim muassasasi sifatida e'tirof etildi.

Tojikistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbar Rahmonzoda Chirchiq davlat pedagogika universiteti jamoasini ushbu nufuzli maqom bilan samimiy qutladi.

“Ovozi tojik” gazetasi Chirchiq davlat pedagogika universitetida tojik ta'limi istiqbollariga bag'ishlangan maqola e'lon qildi.

CHIRCHIQTAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIGA QABUL BOSHLANDI: ABITURIYENTLAR UCHUN MUHIM SANALARNI E'OLON QILAMIZ

Chirchiq davlat pedagogika universitetiga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish jarayoni boshlandi. Har yili bo'lganidek, ushbu muhim bosqich yoz oylarida o'tkaziladi. Bu yilgi qabul ham o'zining aniq belgilab qo'yilgan muddatlari bilan ajralib turadi. Universitetga qabul muddatlari esa quyidagicha belgilangan:

– Bakalavriat yo'nalishlariga qabul uchun hujjatlarni 5-iyundan 25-iyungacha my.uzbmb.uz portali orqali onlayn topshirish mumkin.

– Magistraturaga hujjatlar qabul qilish jarayoni esa 1-iyuldan boshlanib, 30-iyul kuniga qadar davom etadi. Magistratura mutaxassisliklariga qabul jarayoni magistr. edu.uz sayti orqali amalga oshiriladi.

– Ikkinchi oliy ta'lim olishni xohlovchilar uchun esa qabul 10-iyul kuni boshlanib, 10-avgustga qadar davom etadi. Bu bosqichda talabalar o'zlarining malakasini yana

bir yo'nalishda oshirib, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlariga imkon beradi. Hujjatlarni qabul qilish jarayoni my.edu.uz portali orqali o'tkaziladi.

– Bir oliygo'hdan Chirchiq davlat pedagogika universitetiga o'qishini ko'chirmoqchi bo'lgan talabalar uchun arizalarni qabul qilish jarayoni 15-iyuldan boshlanib, 5-avgustgacha davom etadi. Ko'chirish transfer.edu.uz sayti orqali amalga oshiriladi. Chet eldagi yoki respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat OTMDan Chirchiq davlat pedagogika universitetiga o'qishini ko'chirmoqchi bo'lganlar esa my.uzbmb.uz portaliga murojaat qilishi kerak bo'ladi.

Abituriyentlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida @tvchdpi2017 orqali universitetdagi mavjud yo'nalishlar hamda o'tish ballari bilan tanishib chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa yoshlarga o'z imkoniyatlarini aniq baholash va to'g'ri tanlov qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, qabul jarayonlarida ertaroq va hujjatlarni to'g'ri topshirish – muvaffaqiyatli bo'lishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, abituriyentlarga bu yilgi qabul jarayonlarida faol bo'lishlari, hujjatlarini vaqtini kechiktirmasdan to'g'ri shaklda taqdim etishlari tavsiya qilinadi.

Bu yilgi qabul jarayonlari oldingi yillardan farqli o'laroq, abituriyentlar uchun qulay, shaffof va tezkorlikka asoslangan onlayn tizimda amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat vaqtini tejaydi, balki qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlaydi.

Abituriyentlarga omad yor bo'lsin! Bu yoz siz uchun muhim qarorlar va yorqin kelajakka yo'l ochsin!

**Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining
Axborot-xizmati tomonidan tayyorlandi.**